

**BUXORO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**



# **XIZMATLAR SOHASINING RIVOJLANISHI**

**2022- YILNING  
YANVAR-OKTABR OYLARIDA**

**Dastlabki ma'lumotlar**

## Xizmatlar sohasi



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi –  
**12 837,5 mlrd. so'm**



Xizmatlar sohasida kichik biznesning  
ulushi – **61,1 %**



Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor  
xizmatlari hajmi – **6 455,8 ming so'm**



Xizmatlar sohasini har tomonlama rivojlantirish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, samarali bandlik va aholi turmush darajasini oshirishning dolzarb masalasidir.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2022- yilning yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **2 710,2 mlrd. so'mga** oshib, **12 837,5 mlrd. so'mga** yetdi.

Taqqoslama ekvivalentda 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga (**120,1 %**) nisbatan o'sish sur'ati **117,3 %** ni tashkil etdi.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yil yanvar-oktabr oylarida umumiy savdo xizmatlari **32,6 %**, transport **20,7 %**, moliyaviy xizmatlar **19,7 %**, ta'lim **5,0 %** va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari **4,0 %** ni tashkil etdi. Ushbu davrda me'morchilik sohasidagi xizmatlarining ulushi ham minimal bo'lgan – **0,9 %**.

### Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da (2022- yil yanvar-oktabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmini o'sishining asosiy omili moliyaviy xizmatlarning **46,1 %** ga o'sishi (ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **8,5** punkt), savdo xizmatlari – **13,1 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **4,0** punkt), transport xizmatlari – **6,1 %** ga (o'sishga qo'shgan hissasi **1,2** punkt), ta'lim xizmatlari – **20,2 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **1,0** punkt), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari – **21,0 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,8** punkt), boshqa xizmatlar – **18,9 %** (oshirishga qo'shgan hissasi **0,5** punkt), shuningdek, yashash va ovqatlanish xizmatlari – **7,3 %** ga, ko'rsatilgan xizmatlarning umumiy hajmining o'sishiga qo'shgan hissasi **0,3** punktni tashkil etdi.

**2022- yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmini oshirishga xizmat turlari bo'yicha qo'shgan hissasi, f.p.**





## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr oylarida )	Hajmi, mlrd. so'm		O'sish sur'ati, % da
	2021- y.	2022- y.	
<b>Xizmatlar – jami</b>	<b>10 127,3</b>	<b>12 837,5</b>	<b>117,3</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	416,3	508,0	121,0
Moliyaviy xizmatlar	1 701,4	2 533,8	146,1
Transport xizmatlari	2 363,2	2 662,6	106,1
<i>shu jumladan: avtotransport xizmatlari</i>	2 123,7	2 370,4	104,8
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	379,7	486,3	107,3
Savdo xizmatlari	3 301,6	4 189,2	113,1
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	232,1	269,0	107,9
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	490,7	635,0	120,2
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	178,2	223,5	116,1
Ijara xizmatlari	255,6	305,9	111,4
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	205,8	258,3	108,7
Shaxsiy xizmatlar	210,6	268,8	106,0
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	89,8	108,8	112,8
Boshqa xizmatlar	302,3	388,3	118,9

Aholi tomonidan xizmatlar sohasining har xil turlariga bo'lgan talabning barqaror o'sishi va davlat tomonidan amalga oshirilayotgan infratuzilmani (ijtimoiy, transport-kommunikatsiya, savdo va boshqalar) rivojlantirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar xizmat ko'rsatish sohasining barcha tarmoqlarini jadal rivojlantirishni ta'minladi.


Masalan, savdo ibtidoiy taqsimlash mexanizmidan iste'molchiga yo'naltirilgan bozor talabini yaratish jarayonining faol ishtirokchisiga aylandi.

Hozirgi vaqtda savdo xizmatlari iqtisodiyotda ko'rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining muhim qismini tashkil etadi.



**32.6** 2022-yil yanvar-oktabr oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida savdo xizmatlari ulushi

**O'sish sur'ati,**  
**% da**



**Xizmatlar hajmi,**  
**mlrd. so'm**




Hozirgi vaqtda Buxoro viloyatida dengiz transportidan tashqari barcha zamonaviy transport turlari mavjud.

Viloyatda temir yo‘l va avtomobil yo‘llari tarmog‘i, xalqaro aeroport majmualari rivojlangan. Shu bilan birga, davlat hududi bo‘ylab kesib o‘tadigan va mamlakatning xalqaro va tranzit transportiga bo‘lgan ehtiyojini ta‘minlaydigan havo yo‘llari mavjud.

2022- yil yanvar-oktabr oylarida transport xizmatlari hajmi **2 662,6** mlrd. so‘mni tashkil etdi, ularning o‘shishi 2021- yil yanvar-oktabr oylariga nisbatan **6,1** % ni tashkil etdi. Ko‘rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida ushbu turdagi xizmatlarning ulushi ustun bo‘lib qolmoqda – **20,7** %.



**O‘shish sur‘ati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so‘m**




Bank tizimining moliyaviy barqarorligini isloh qilish hamda mustahkamlash, pul-kredit siyosatini erkinlashtirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarini kreditlash mexanizmini takomillashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vaqt rejimida xizmatlar ko'lamini kengaytirish (Internet-banking, mobil banking) moliyaviy tashkilotlarning so'nggi elektron to'lov texnologiyalarini joriy etish tarmoqlari moliyaviy xizmatlarning o'sishiga ta'sir ko'rsatdi.




### Moliyaviy xizmatlar (yanvar-oktabr)

Moliyaviy xizmatlarning hajmi **832,4** mlrd. so'mga oshdi va **2 533,8** mlrd. so'mga yetdi. Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida **19,7 %** ni tashkil etdi. Jami moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati **146,1 %** ni tashkil etdi.

O'sish sur'ati,  
% da



Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm





***Moliyaviy xizmatlar tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-oktabr)***



1. Sug'urta va nafaqa ta'minoti bo'yicha xizmatlardan tashqari moliyaviy xizmatlar


2. Sug'urta bo'yicha xizmatlar

3. Yordamchi moliyaviy faoliyat


<b>Moliyaviy xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)</b>	<b>Hajm, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
Olot	41,9	159,8
Buxoro	109,2	154,3
Vobkent	57,4	164,3
G'ijduvon	154,0	125,4
Kogon	0,2	112,3
Qorako'l	75,5	152,2
Qorovulbozor	23,4	174,0
Peshko'	72,6	143,6
Romitan	121,7	146,8
Jondor	98,0	141,9
Shofirkon	88,6	142,8
Buxoro shahri	1 625,2	145,3
Kogon shahri	66,1	2,0 m.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida innovatsiyalarni joriy etish va ulardan samarali foydalanish korxonalarda boshqaruv va texnologik jarayonlarning samaradorligini oshirishga yordam beradi, iqtisodiyotning turli sohalarida mavjud bo'lgan tovar va xizmatlar bozorini kengaytirish va yangilarini barpo etish, oxir-oqibatda aholi turmush sifatini yaxshilashga olib keladi.


**Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining tarkibi, % da  
(2022- yil yanvar-oktabr)**



**O'sish sur'ati,  
% da**



**Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm**






## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so‘m	O‘sinh sur‘ati, % da
Olot	14,3	117,9
Buxoro	23,9	118,7
Vobkent	20,9	117,8
G‘ijduvon	43,3	118,3
Kogon	12,7	119,3
Qorako‘l	22,7	118,4
Qorovulbozor	4,5	112,5
Peshko‘	18,2	117,5
Romitan	21,1	118,8
Jondor	27,3	117,7
Shofirkon	25,3	116,9
Buxoro shahri	263,6	124,0
Kogon shahri	10,2	117,3

2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining yuqori o‘shishi Kogon (**19,3** %), Romitan (**18,8** %) va Buxoro (**18,7** %) tumanlarida hamda Buxoro shahrida (**24,0** %) qayd etildi.

Ushbu xizmatlar hajmining nisbatan biroz o‘shishi Qorovulbozor tumanida kuzatildi – **12,5** %.


### Ta'lim sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	6,4	103,3
Buxoro	11,7	102,9
Vobkent	8,1	102,9
G'ijduvon	78,1	104,0
Kogon	15,7	2,1 m.
Qorako'l	14,5	123,5
Qorovulbozor	1,2	103,1
Peshko'	8,0	103,3
Romitan	8,5	103,5
Jondor	13,2	110,8
Shofirkon	13,4	103,0
Buxoro shahri	451,3	124,7
Kogon shahri	4,9	104,4

## Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (yanvar-oktabr)

*O'sish sur'ati,  
% da*




*Xizmatlar hajmi,  
mlrd. so'm*



Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2022- yil yanvar-oktabr)	Hajm, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da
Olot	6,7	115,4
Buxoro	18,5	114,8
Vobkent	7,0	109,8
G'ijduvon	16,3	116,2
Kogon	5,9	115,8
Qorako'l	12,3	113,8
Qorovulbozor	1,3	129,7
Peshko'	10,2	115,5
Romitan	7,4	112,2
Jondor	8,4	119,4
Shofirkon	7,2	112,1
Buxoro shahri	112,1	117,7
Kogon shahri	10,2	112,0

**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar (yanvar-oktabr)**



**Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar  
(2022-yil yanvar-oktabr)**



 Hajm, ming so'm

 O'sish sur'ati, % da




## BUXORO VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

<b>Shahar va tumanlar bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari (2022- yil yanvar-oktabr)</b>	<b>Hajm, mlrd. so'm</b>	<b>O'sish sur'ati, % da</b>
Buxoro viloyati 1)	<b>12 837,5</b>	<b>117,3</b>
Olot	444,1	112,0
Buxoro	687,5	115,0
Vobkent	920,6	126,5
G'ijduvon	1 594,2	111,2
Kogon	420,5	111,3
Qorako'l	554,4	114,3
Qorovulbozor	197,3	104,9
Peshku	727,0	122,5
Romitan	719,8	117,2
Jondor	686,2	110,4
Shofirkon	576,4	116,0
shaharlar:		
Buxoro sh.	4 849,8	120,6
Kogon sh.	459,7	117,7

<sup>1)</sup> shahar va tumanlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni inobatga olgan holda

Xizmat ko'rsatish sohasining rivojlanish darajasi aholining munosib turmush sifatini ta'minlash ko'rsatkichidir, chunki xizmatlar bozorining rivojlanishiga ta'sir qiluvchi omil bu – aholining real daromadlari va turmush darajasining o'sishi.




**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari (yanvar-oktabr)**


2022- yilning yanvar-oktabr oylarida aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **6 455,8** ming so'mga yetdi. 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati **115,5** % ni tashkil etgan.

**Taqqoslash uchun:** 2021- yilning yanvar-oktabr oylariga nisbatan aholi jon boshiga xizmatlar hajmi **5 173,1** ming so'mni tashkil etgan.

**O'sish sur'ati, % da**




**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi, ming so'm**





2022-yilning yanvar-oktabr oylarida shahar va tumanlar bo'yicha bu ko'rsatkich Buxoro shahrida **16 968,1** ming so'mdan Shofirkon tumanida **3 156,0** ming so'mgachani tashkil etdi.

**Aholi jon boshiga ko'rsatilgan bozor xizmatlarining  
asosiy ko'rsatkichlari**  
(2022- yil yanvar-oktabr)



**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*

**Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni**




**2021- yilning mos davriga nisbatan ular sonining o'sishi**

**2021- yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati**



**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning tarkibi**  
*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**2022- yilning 1- noyabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari to'g'risida ma'lumot**

*(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)*




**Xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik tadbirkorlik subyektlari**  
*(yanvar-oktabr)*

**O'sish sur'atlari,  
% da**



**Kichik tadbirkorlikning xizmatlardagi hajmi, mln. so'm**



**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi  
Tel.: 65-223-79-41**